

## O‘TKIR HOSHIMOV ASRLARIDA QO‘LLANILGAN BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

**Jumag‘ulova Xusniya Maxmarosul qizi**

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti Lingvistika:  
o‘zbek tili 2- kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada mahoratli yozuvchi O‘tkir Hoshimov asarlari lingvopoetikasining bugungi o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni xususida so‘z boradi. Yozuvchi bir qancha o‘rinlarda qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba‘zan ko‘cha-ko‘ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo‘rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo‘llanilgan iboralarning lingvopoetik tahlili, inson tana a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralarni qo‘llash mahorati va ularni o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rni ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetika, kognitiv tilshunoslik, badiiy matnni lingvopoetik tahlili, poetik leksikologiya, poetik morfemika, shakl va mazmun, so‘z birikmasi, frazeologizm, barqaror birikmalar.

Ma‘lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat holatlarni baholash, turmushda bo‘lib o‘tadigan turli hayotiy tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib obrazli ma‘noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Adabiyot dunyosida “nasrdagi tarona”, “nasrdagi shoir” atamaları bor. 20 asr yangi o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olgan bo‘lsa, 60-yillar zamonaviy adabiyotida O‘tkir Hoshimovni nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo‘shiq, tarona deb atash mumkin. Ilk qissasi “Cho‘l havosi”dan tortib “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobiga qadar–barcha asarlariga xos mushtarak jihati shuki, ular betakror, benazir sirli musiqiy ohang bilan yo‘g‘rilgan. El sevgan adib O‘tkir Hoshimov hajviy hikoya yaratish jarayonida iboralarga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat etgan. Masalan:

- Ilhom, samovaringni tagiga tosh bog‘laganmisan, nima balo?! **Bermasning oshi pishmas** deb!<sup>21</sup> Bu ibora o‘z zamirida baxillik va saxiylik g‘oyasini ifodalaydi. Baxil odam o‘z nafsoniyati bilan o‘z hayotini og‘irlashtirishi, rizqi pishmasligi osh pishmasligiga, ya’ni qorni to‘ymasligiga ishora vazifasini bajarmoqda.

– Lampamoy **anqoning urug‘i** bo‘lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz. ( “Ikki eshik orasi” ).

Shomurodning fe’li cholimga o‘xshaydi. Cholim ham **o‘z kindigini o‘zi kesgan** xilidan edi. Kolxoz bo‘larmish degan gap chiqqanda Orifxo‘ja boyning odamlari kechasi uyimizga bostirib kirgan. **“Ichagingni boshingga salla qilib ketamiz”**, deb qo‘rqitgan. Cholimning jussasi kichkina bo‘lsayam, **yuragi otning kallasidek** edi. **“Bir boshga bir o‘lim, qo‘lingdan kelganini qil”**

Yozuvchilar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalaniq qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi.<sup>22</sup> Darhaqiqat, yozuvchi o‘zi yaratayotgan qahramonning o‘ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to‘liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarining bir qancha o‘rinlarida qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba‘zan ko‘cha-ko‘ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo‘rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo‘llagan.

Kechqurun qorong‘u tushganda oyim qo‘limga bir tovoq ovqat, to‘rtta non tutqazdi.

- Boraqol, qizim, hammasining **ichi uzilib ketgandir**.

**Qo‘ydek yuvosh** Kimsan akamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman!

**O‘pkamni bosib ololmas**, bir yoqlarga qochib ketgim kelardi.[102-b]

**“Podadan oldin chang ko‘tarma**, g‘unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo‘yibdi senga”, - debdi. [103-b]

**Oyog‘imni qo‘limga olib bostirmaga yugurdim**. Hali tandirdan uzayotganimizda oyim singgib pishgan, yuziga sedana sepilgan kattakon patirni qo‘limga tutqazib, buyurgan edi: “Tayinli joyga bekitib qo‘y, so‘raganimda obkelasan!”[106-b]

Nega **mulla mingan eshakdek** angrayasan. Tur o‘rningdan!

**“Dard ustiga chipqon”** degandek, Kimsandan na xat bor, na xabar.

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalaniq qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot

<sup>21</sup> “Ikki eshik orasi” 19-b.

<sup>22</sup> Yo‘ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan” 2006

tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Darhaqiqat, yozuvchi o'zi yaratayotgan qahramonning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to'liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. O'tkir Hoshimov ham hajviy hikoyalarining bir qancha o'rinlarida qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba'zan ko'cha-ko'ydagi yurishturishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo'rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo'llagan. Ayniqsa, yozuvchi insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralarni qo'llab, yuqori saviyadagi hikoyalarni yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Bunday birikmalarni badiiy asar tarkibiga qay yo'sinda kiritish esa, yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bog'liq. Shu tariqa xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullarini tilshunos olim B. Yo'ldoshev keng tadqiq qilgan. Iboraning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda iboralarning mazmun planida bo'rtib turadi, bu omil iboralardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta bo'ladi.

Ma'lumki, frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida kelganda bir mustaqil so'z, so'z birikmasi, gap tarzida harakat qiladi. Shu boisdan, agar yozuvchi yuqoridagi *ko'zi ilindi, yuragim taka-puka bo'lib kirsam, ko'zi pishib ketgan, og'zingga qarab gapir* kabi iboralarning o'rnida *uxlamoq, hayajonlanmoq, o'ylab gapirmoq* kabi jummalarni qo'llanganida edi, hikoyalarning badiiy estetik qimmati bunchalik oshmagan bo'lar edi. Va yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ham yeta olmagan bo'lar edi.

Badiiy asarda sinonim so'z va sinonim iboralardan foydalanishda, ular anglatadigan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobga olinadi. Chunki qo'llanayotgan har bir sinonim so'z va sinonim ibora o'z ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanib, ulardan o'rinli foydalanish ifoda etilayotgan fikrning aniq va ravon bo'lishiga xizmat qiladi. Bir frazeologik sinonimiya qatorini tashkil etgan iboralar bir-biridan o'zlari ifodalagan ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqdorligi, konnatativ ma'nosi, ta'sirchanlik va obrazlilik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Shuningdek, yozuvchining qanchalik ko'p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi

misollarda qoʻllangan iboralar sinonim boʻlsa-da, ular oʻz maʼno nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozirgi oʻzbek tilida leksik sinonimlar bilan bir qatorda leksik- frazeologik va frazeologik sinonimlar mavjud boʻlib, ular badiiy uslub namunalarida keng qoʻllaniladi, jumladan biz kuzatish olib borayotgan adib ijodida ham bu holat kuzatiladi. Maʼlumki soʻzlar va iboralar oʻrtasidagi sinonimik munosabat leksik-frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Nutqimizda qoʻllaydigan iboralar ham bir-biri bilan oʻzaro sinonimik munosabatga kirishib, frazeologik sinonimiya qatorini hosil qiladi.

Bu iboralarning barchasi ishning koʻzini biladigan odamlarga nisbatan qoʻllanilgan soʻz birikmalari haqidadir. Bunda “koʻzi pishib ketgan” iborasi “suv qilib ichib yuborgan” iborasiga qaraganda maʼno darajasining kuchliligi, ifodaliligi jihatidan farq qilsa, “hadisini olgan” iborasi sinonimik qatordagi har ikkala iboradan ham obrazlilik bilan farq qiladi. Yozuvchi kuchsizroq va kuchliroq maʼno anglatuvchi iboralarni qoʻllash orqali soʻz qoʻllash sanʼatini namoyish qilgan. Koʻrinib turganidek, sinonim iboralardan foydalanishdagi keng imkoniyat yozuvchi qalamining oʻtkirlikidan dalolat beradi.

Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasi koʻchma maʼnoda qoʻllanuvchi obrazli iboralar boʻlib, ular asarda muallif nutqining rang-barang boʻlishini taʼminlaydi. Bunday iboralarni ishlatish personaj nutqiga tavsif berishda eng faol qoʻllanadigan vositalardan biri sanaladi. Tildagi frazeologik sinonimlardan asarda toʻgʻri qoʻllay bilish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida kishilar oʻzlarining fikr va gʻoyalarini eng nozik maʼno xususiyatlarini tushunarli va aniq, shirali, obrazli va taʼsirchan qilib ifodalashga muyassar boʻladilar. Umuman, yozuvchi Oʻtkir Hoshimovning hikoyalarida, ayniqsa, “Usta koʻrgan shogird”, “Koʻkyotal”, “Osh” kabi hikoyalarida leksik birliklar yozuvchi uslubining oʻziga xosligini taʼminlaydi va bu soʻz qoʻllash xususiyatlariga, yangi tasvirlar hosil qilish jihatidan oʻziga xoslikni tashkil qiladiki, bu holat boshqa asarlarda kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻtkir Hoshimov asarlarida qalam uchidan soʻzlar musiqa singari quyilib keladi. Uning hikoya va qissalari sheʼrdek, dostondek oʻqiladi, ular yakka sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari koʻp ovozli simfoniyani eslatadi. Hatto asarlarida qoʻllangan iboralar ham serqirraligi, ishlatilish oʻrinlari bilan oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yo‘ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan” 2006.
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Sh.Rahmatullayev.Toshkent .1978.
3. O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. Toshkent-2012.
4. O‘tkir Hoshimov “Urushning so‘nggi qurboni” Hikoya.